

Date: 5th May-2026

JIZZAX VILOYATI SHAROITIDA QUINCE A PAYVANDTAGIDA “KARMEN”
NOK VA ISTIQBOLLI PAYVANDTAGLARIDA YETISHTIRILGAN GILOS
NAVLARINING BIOLOGIK VA XO‘JALIK XUSUSIYATLARINI BAHOLASH

Pardabayev Sh.T¹, Arziqulov S.Ch.²

1. Akademik M.Mirzayev nomidagi bog`dorchilik, uzumchilik va vinochilik instituti Jizzax ilmiy-tajriba stansiyasi ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo`yicha direktor o`rinbosari
2. Akademik M.Mirzayev nomidagi bog`dorchilik, uzumchilik va vinochilik instituti Jizzax ilmiy-tajriba stansiyasi bog`dorchilik va uzumchilik agrotexnikasi bo`limi boshlig`i

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jizzax viloyatining yarim qurg`oqchil agroiklim sharoitida “Karmen” nok navining Quince A payvandtagida o`sishi, rivojlanishi, hosildorligi va meva sifati o`rganildi. Shuningdek, gilos navlarining turli payvandtaglarda biometrik ko`rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko`rsatdiki, Quince A payvandtagi nok daraxtlarining past bo`yli bo`lishi, erta hosilga kirishi va yuqori hosildorligini ta`minlaydi. Gilosda esa Maxma 14 va Cold payvandtaglari daraxtlarning vegetativ o`sishi va toj shakllanishiga sezilarli ta`sir ko`rsatadi. Ilmiy natijalar intensiv bog`dorchilikni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so`zlar: nok, Karmen navi, Quince A, payvandtag, gilos, Maxma 14, Cold, biometrik ko`rsatkichlar, hosildorlik, intensiv bog`dorchilik

Kirish. Hozirgi kunda qishloq xo`jaligida, ayniqsa bog`dorchilik sohasida intensiv texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va eksportbop mahsulotlar yetishtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Global iqlim o`zgarishi, suv resurslarining cheklanishi va tuproq degradatsiyasi sharoitida yuqori hosildor, tez hosilga kiruvchi va stress omillarga chidamli mevali daraxt navlarini tanlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, nok va gilos kabi iqtisodiy jihatdan muhim mevali daraxtlar uchun mos payvandtaglarni aniqlash va ularning kombinatsiyalarini baholash bugungi kun talabidir.

Nok (*Pyrus communis L.*) O`zbekiston bog`dorchiligida muhim o`rin tutuvchi mevali daraxtlardan biri bo`lib, uning zamonaviy intensiv bog`larda yetishtirilishi yuqori samaradorlikni ta`minlaydi. Ayniqsa, klon payvandtaglardan foydalanish orqali daraxtlarning o`sish kuchini boshqarish, hosildorlikni oshirish va meva sifatini yaxshilash mumkin. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, past bo`yli payvandtaglar daraxtlarning vegetativ o`sishini cheklab, generativ rivojlanishni tezlashtiradi va bu hosilga erta kirishni ta`minlaydi [3].

Mazkur tadqiqotda “Karmen” nok navi Quince A payvandtagida Jizzax viloyati sharoitida o`rganildi. Quince A (*Cydonia oblonga*) payvandtagi o`zining past bo`yli daraxt hosil qilishi, erta hosilga kirishi va yuqori hosildorlikni ta`minlashi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, u zich ekish imkonini berib, intensiv bog`lar tashkil etishda muhim ahamiyat



Date: 5th May-2026

kasb etadi. Ayrim manbalarda ushbu payvandtagning sovuqqa sezgirligi qayd etilgan bo'lsa-da, Jizzax viloyati sharoitida olib borilgan kuzatuvlarda bunday salbiy holatlar deyarli aniqlanmadi.

Tadqiqotlar 2022–2025 yillarda Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumanidagi ilmiy-tajriba stansiyasida olib borildi. Tajribalarda “Karmen” nok navi Quince A payvandtagida 4×2 m sxema asosida ekildi. Parvarish ishlari zamonaviy agrotexnologiyalar asosida olib borilib, tomchilatib sug'orish, muvozanatli mineral oziqlantirish (NPK tizimi) hamda integratsiyalashgan himoya choralari qo'llanildi. Tadqiqot davomida fenologik bosqichlar, daraxtlarning o'sish ko'rsatkichlari, hosildorlik, meva sifati hamda kasallik va zararkunandalarga chidamlilik darajasi o'rganildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, “Karmen” nok navi Quince A payvandtagida 3–4 yilda hosilga kiradi. Bu ko'rsatkich kuchli o'suvchi payvandtaglarga nisbatan ancha erta bo'lib, intensiv bog'dorchilik talablariga to'liq javob beradi. Daraxtlarning o'sish kuchi cheklangan bo'lib, past bo'yli va ixcham shaklga ega bo'ldi, bu esa meva terimini osonlashtirdi va mexanizatsiyalash imkonini berdi.

Hosildorlik ko'rsatkichlari ham yuqori darajada qayd etildi. O'rtacha hosildorlik 25–30 kg/daraxtni tashkil etgan bo'lsa, optimal agrotexnik sharoitlarda bu ko'rsatkich 35 kg va undan yuqoriga yetdi. Bu natijalar xalqaro tadqiqotlarda keltirilgan intensiv bog'lar hosildorligi bilan mos keladi [4].

Meva sifati ko'rsatkichlari bo'yicha “Karmen” navi yuqori natijalarni ko'rsatdi. Tadqiqot davomida o'lchangan 20 ta mevaning vazni 93.65 g dan 190.67 g gacha bo'lib, o'rtacha 146.01 g ni tashkil etdi. Mevalar cho'ziq-armut shaklida, qizg'ish-yashil rangli, jozibador tashqi ko'rinishga ega bo'ldi. Ta'mi shirin-nordon, aromatik xususiyatlarga boy bo'lib, iste'mol sifatlari yuqori baholandi. Janick (2021, p. 140) ma'lumotlariga ko'ra, 120 g dan ortiq meva vazni eksportbop navlar uchun optimal ko'rsatkich hisoblanadi.

Mevalarning tashishbardoshliligi ham yuqori bo'lib, ular 10–15 kun davomida sifatini saqlab qoldi. Bu esa ichki va tashqi bozorlarda realizatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot davomida fitosanitar holat ham tahlil qilindi. Kuzatuvlarga ko'ra, barglarda entomosporioz (*Entomosporium maculatum*) kasalligi alomatlari kuzatildi. Kasallik barglarda qizil-jigarrang dog'lar paydo bo'lishi bilan namoyon bo'lib, kuchli rivojlanganda fotosintez jarayonini pasaytiradi va hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat Wertheim (2017, p. 156) tomonidan keltirilgan ma'lumotlar bilan mos keladi.

Bundan tashqari, ayrim barglarda tuynuklar paydo bo'lishi yaproq kemiruvchi zararkunandalar faoliyati bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Integratsiyalashgan himoya tizimi doirasida fungitsid (difenokonazol, siprodinil) va insektitsid (tiametoksam) preparatlari qo'llanilib, kasallik va zararkunandalar tarqalishi samarali nazorat qilindi. Shu bilan birga, biologik usullar — *Trichoderma harzianum* va *Bacillus subtilis* asosidagi biopreparatlar qo'llanishi ekologik xavfsiz himoya chorasi sifatida ijobiy natija berdi.

Mazkur tadqiqot doirasida gilos (*Prunus avium L.*) navlarining turli payvandtaglarda o'sish ko'rsatkichlari ham o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, payvandtag tanlovi daraxtning morfologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



Date: 5th May-2026

Xususan, Sabrina navi Maxma 14 payvandtagida eng yuqori balandlikka (5.65 m) ega bo'ldi. Burlat navi esa Maxma 14 payvandtagida eng katta poya kesim yuzasini (1809.84 sm²) ko'rsatdi. Toj proyeksiyasi maydoni bo'yicha ham Sabrina navi yetakchilik qilib, 4.75 m² natijani qayd etdi. Bu ko'rsatkichlar ushbu payvandtagning daraxtlarning vegetativ o'sishini rag'batlantirishini ko'rsatadi.

Cold payvandtagida o'stirilgan gilos navlari esa kuchli ildiz tizimi va yuqori moslashuvchanlik bilan ajralib turdi. Bu esa ularning qurg'oqchilik va noqulay tuproq sharoitlariga chidamliligini oshiradi. Ushbu natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos kelib, payvandtaglarning daraxt o'sishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [3].

Umuman olganda, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, nok va gilos ekinlarida payvandtag tanlovi intensiv bog'dorchilik samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Quince A payvandtagi nok daraxtlarining past bo'yli va erta hosilga kirishini ta'minlab, yuqori hosildorlik va meva sifatiga erishishga xizmat qiladi. Gilosda esa Maxma 14 va Cold payvandtaglari turli agroiklim sharoitlarida moslashuvchan va samarali kombinatsiyalarni namoyon etdi.

Xulosa qilib aytganda, "Karmen" nok navi Quince A payvandtagida Jizzax viloyati sharoitida istiqbolli nav sifatida tavsiya etiladi. Ushbu kombinatsiya intensiv bog'lar tashkil etish, yuqori hosildorlikka erishish va eksportbop mahsulot yetishtirish imkonini beradi. Gilos navlarida esa payvandtag tanlovi daraxtning biometrik va xo'jalik ko'rsatkichlarini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot natijalari hududda intensiv bog'dorchilikni rivojlantirish, ilmiy asoslangan agrotexnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh meva yetishtirishni kengaytirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev A.A., Karimov Sh.Sh. Mevali daraxtlar seleksiyasi va ko'paytirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 145 b.
2. Mirzaev M.M., Rasulov B.R. Bog'dorchilik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 210 b.
3. Webster A.D. Rootstocks for temperate fruit crops: current uses, future potential. – Acta Horticulturae, 2019. – p. 25–34.
4. Wertheim S.J. Rootstocks for fruit trees. – Wageningen: International Society for Horticultural Science, 2017. – 300 p.
5. Janick J. Horticultural Reviews. – Wiley, 2021. – Vol. 48. – p. 120–156.

